



АРАЛАШ МОДДАЛАРДАН ПАХТА МОЙИНИ ТОЗАЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ

QDTU dotsenti **Z.D.Xolmurodova.**,
talaba **Geldiyev Elbek**

Annotsatsiya. Paxta moyini organik aralash modalardan tozalashda ya'ni NaOH bilan rafinatsiyalansa moy chiqimi va sifat ko'rsatkichlari past bo'lganligi uchun, natriy alyuminat bilan tozalashda kam xarajat bo'ladi va sifati yaxshi bo'ladi.

Kalit so'zlari: yog', moy, press, PU-6 tipidagi adsorbent, rafinatsiya, fizik -kimyoviy, natriy gidroksid.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОЧИСТКИ ХЛОПКОВОГО МАСЛА ОТ СМЕСНЫХ ВЕЩЕСТВ

Доцент Кар ГТУ **З.Д.Холмуродова.**,
студент **Гелдиев Элбек**

Аннотация. При очистке хлопкового масла от органических примесей, то есть при рафинации NaOH, из-за низких показателей выхода и качества масла, очистка алюминатом натрия имеет низкие затраты и хорошее качество.

Ключевые слова: масло, масло, пресс, адсорбент типа ПУ-6, рафинация, физико-химический, гидроксид натрия.



MODERN METHODS OF PURIFYING COTTON OIL FROM MIXED SUBSTANCES

*Associate Professor of Kar GTU Z.D.Kholmurodova.,
student Geldiyev Elbek*

Abstract. *When cleaning cottonseed oil from organic impurities, that is, when refining NaOH, due to low oil yield and quality indicators, cleaning with sodium aluminate has low costs and good quality.*

Keywords: *oil, oil, press, PU-6 type adsorbent, refining, physicochemical, sodium hydroxide.*

Respublikamizda yog' moy sanoati korxonalarida xom ashyo sifatiga paxta chigiti mag'ziga texnologik ishlov berilib, undan press lash yoki ekstraksiyalash usullari bilan o'simlik moyi ishlab chiqariladi. O'simlik moylarida o'zining tuzilishi va xossalari jihatidan turlicha bolgan rangli moddalar boladi. Ular asosan, karotinoidlar, xlorofillar, paxta moyida esa gassipol va uning hosilalaridan iborat. Bunday usullar bilan olingan moy tarkibida turlicha qoshimchalar mavjud bolib, ular mahsulotning sifatiga salbiy ta'sir etib, uni turli usullar bilan tozalashadi.

Ishlab chiqarish miqyosida paxta moyini yo'llovchi organik birikmalardan tozalash uchun ishqoriy rafinatsiyalash usuli qo'llanilib ,bu maqsad uchun natriy gidroksidining quyuq eritmalaridan foydalaniladi. Ushbu usul bilan olingan iste'mol moyi chiqimi va sifat ko'rsatkichlari bilan nisbatan past baxolanib, uni texnologiyasi takomillashtirishini talab etadi. Bundan tashqari natriy gidroksidini tanqisligi va uni chetdan xarid qilinishi, ushbu ishqorni o'rnini almashtiruvchi yangicha kimyoviy birikmalarni joriy etilishini talab qiladi. Shu sababli ushbu ishining asosiy maqsadi paxta moyini yangicha turdagi ishqoriy eritmalar bilan tozalash usulini joriy etish va uni takomillashtirishdan iboratdir.



Rafinatsiyalanayotgan moyning jadalli oqartirilishi bo'yoqli moddalarni texnologik jarayonlarini borishda natriy alyuminatdan hosil boladigan alyuminiy oksidida adsorbsiyalanishi natijasida amalga oshadi. Yangi texnologik jarayonni joriy etilishi natijasida, rafinatsiyalash jarayonida sarf bo'ladigan natriy gidroksidining sarfi 2...2,5 marotabaga kamaytirilib, texnologik sarflar kamaytirilishiga erishildi.

Keltirilgan texnologik tizimdan ko'rinishicha paxta moyini ishqoriy usulda tozalash jarayoni nisbiy ravishda ikki bosqichda amalga oshirilib, uning birinchi bosqichida xom- ashyo o'zining tarkibidagi ayrim qo'shimchalardan qisman tozalanib, undan yuqori sifatli va ozuqaviy iste'mol moyi olinishiga erishiladi. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun paxta moyini ishqoriy usulda tozalash jarayoni natriy alyuminati va natriy gidroksidi eritmalarini birin ketin qo'llanilishi asosida tajribalarda tekshiriladi.

Tavsiya etilayotgan bunday texnologik tizim natijasida paxta moyini tozalashda qo'llaniladigan natriy gidroksidining ma'lum bir qismi an'anaviy bo'lmagan va ishlab chiqarish chiqindisi hisoblanilgan natriy gidroksidi ishqorining tejalishiga erishiladi. Paxta moyini tozalashning yangicha texnologik usulini tadqiqotlar asosida telshirilishi uchun xom ashyo oraliq va tozalangan moylarni sifatini hamda fizik -kimyoviy ko'rsatkichlarini baholash uchun fan sohasida va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan zamonaviy baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotlarda turli kislota sonli quyidagi boshlangich ko'rsatkichlariga ega bolgan presslash usuli bilan olingan paxta moyidan foydalanildi. Rangi 27 qizil birlikda, 35 sariqlikda va 1 sm qalinlikda; fosfatidlar miqdori - 1,57- 1,80 % erkin gassipol moddasi miqdori -0, 34-0, 52%.

Tadqiqotlarimizda elektrmagnit maydonidan foydalanib rafinatsiyalangan moyni PU 6 tipidagi adsorbent yordamida oqlash jarayonlarini amalga oshirganda moyni sifat ko'rsatkichlarini oshirishga erishildi . Moyni adsorbent yordamida



oqlashda moy tarkibiga adsorbent qoldiqlari qolmasligi, bu oqlash jarayonini mukammallashganidan iboratdir,

Natijada yuqori sifatli mahsulot olish uchun moyni tozalanish darajasi oshirildi va sarflar kamaytirildi. Olinadigan tayyor mahsulot sigati va texnologik tejamkorligini baxolanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Н. С. Арутюнян, Е. А. Аришев, "Технология переработки жиров"- М. Агропромиздат, 1992.
- 2.К.Х.Мажидов, С. Ш. Исмаев, Повышение качества рафинированного хлопкового масла/ Пищевая промышленность, Москва, 1996, №4, с 20.
- 3.К.Х.Мажидов, С. Ш. Исмаев и др. Совершенствование технологии рафинации хлопкового масла // Масложировая промышленность, Москва, 2004 №4 с 20.
- 4.А. Saidov, Z.Xoliqov, Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ustivor yo'nalishi // "XALQARO OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGINI ILMIY NAZORAT QILISH VA DOLZARB VAZIFALARI" Toshkent – 2024- 73-74 s.